



Bobir SULAYMONOV,

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti dotsenti, PhD

E-mail: bsulaymonov684@gmail.com, <https://orcid.org/my-orcid?orcid=0009-0007-3109-663&justRegistered=true>

Professor X.Narxodjayeva taqrizi bilan

THE ROLE OF WRITING FORMAT, PUNCTUATION MARKS, AND LEXICOGRAPHICAL MARKERS IN A DICTIONARY ENTRY

Annotation

This article is devoted to the laws of microstructural formation of a dictionary entry in lexicography, which is one of the most relevant and practical fields of modern linguistics. The study substantiates that a dictionary is not only a collection of linguistic units but also a complex semiotic and visual system. The author systematically analyzes the role and functional tasks of the main tools that determine the external and internal architecture of a dictionary entry: writing format, punctuation marks, and special lexicographical markers.

Keywords: lexicography, dictionary entry, microstructure, writing format, punctuation, lexicographical markers, stylistic labels.

РОЛЬ ФОРМАТА ПИСЬМА, ПУНКТУАЦИОННЫХ ЗНАКОВ И ЛЕКСИКОГРАФИЧЕСКИХ МАРКЕРОВ В СЛОВАРНОЙ СТАТЬЕ

Аннотация

Данная статья посвящена закономерностям микроструктурного формирования словарной статьи в лексикографии, являющейся одной из самых актуальных и практических областей современного языкознания. В исследовании обосновывается, что словарь: это не только совокупность языковых единиц, но и сложная семиотическая и визуальная система. Автор систематически анализирует роль и функциональные задачи основных инструментов, определяющих внешнюю и внутреннюю архитектуру словарной статьи: формат письма, пунктуационные знаки и специальные лексикографические маркеры.

Ключевые слова: лексикография, словарная статья, микроструктура, формат письма, пунктуация, лексикографические маркеры, стилистические пометы.

LUG'AT MAQOLADA YOZUV FORMATI, PUNKTUATION BELGILAR HAMDA LEKSIKOGRAFIK MARKERLARNING O'RNI

Аннотация

Mazkur maqola zamonaviy tilshunoslikning eng dolzarb va amaliy sohalaridan biri bo'lgan leksikografiya (lug'at tuzish mahorati)da lug'at maqolasining mikrostrukturaviy shakllanish qonuniyatlariga bag'ishlangan. Tadqiqotda lug'at nafaqat lisoniy birliklar to'plami, balki murakkab semiotik va vizual tizim ekanligi asoslab beriladi. Muallif lug'at maqolasining tashqi va ichki arxitektonikasini belgilovchi asosiy vositalar: yozuv formati, punktuatsion belgilar va maxsus leksikografik markerlarning o'rni hamda funksional vazifalarini tizimli ravishda tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: leksikografiya, lug'at maqolasi, mikrotuzilma, yozuv formati, punktuatsiya, leksikografik markerlar, uslubiy pometkalar

Kirish. Lug'at maqola asosiy komponentlar bosh so'z, semantizatsiya, illyustatsiyadan tashqari keltirilgan izohni oson tushunilishi, keltirilgan ma'lumotlarni tizimlashtirish maqsadida qo'llangan leksikografik markerlar, shuningdek, tanlangan yozuv formati, muayyan qolipga kirgan punktuatsiya tizimini ham o'z ichiga oladi. Jahon va o'zbek lug'atchilik xazinasiga mansub izoh tipiga mansub lug'atlar ustida olib borgan izlanishlarimiz shuni ko'rsatdiki, jahon leksikografiyasida ham, o'zbek leksikografiyasida ham lug'at maqola tarkibiga kiritilgan qo'shimcha komponentlarning joylashuvi, turli-tuman pometalar, punktuatsion belgilar, transkripsion belgilar, tipografik belgilar, paleografik belgilarning ishlatilishi, umuman, matn kontinumida abzats, interval va boshqalarning rasmiylashtirilishida qat'iy bir xillik kuzatilmaydi.

Izoh tipli o'quv lug'atlar lug'at maqolasida bosh so'zning lug'at shakli, matn komponentlarining maqola tarkibida joylashuvi, maqola tarkibidagi zarur so'zlarning yozuv formati, tinish belgilari, hosila ma'nolar, sinonimlar, shakldosh so'zlarning berilishi, turli tipografik belgilarning ishlatilishi

zamonaviy o'quv leksikografiyasining dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Kompyuter texnologiyalari taraqqiyoti bilan bog'liq holda zamonaviy leksikografik amaliyotda lug'at maqola tarkibida yozuvning qalin qora (жирный), yotiq (kursiv), oraliq masofa tashlangan (разреженный), faqat bosh harflardan iborat (Caps Lock) kabi formatlaridan foydalanilishi ommalashib bormoqda. Izoh matn qismlari – so'z ma'nolari talqinini lug'at maqolada joylashtirishda ularning muhimlik darajasi, ichki munosabati hisobga olinadi. Bunda quyidagi yozuv formatlaridan o'rinli foydalaniladi:

1. Qalin qora (жирный) harflar. Bosh so'z – lemma, lug'atda odatda, qora qalin harflar bilan ajratib beriladi. Shu bois rus tilida bosh so'zga nisbatan qora so'z (черное слова) ham deyiladi.

Lug'at maqolada qora rangli so'zlar ikki yozuv formatida ifodalanadi. Birinchisi, bosh so'z to'liq katta, bosh harflar (Caps Lock) bilan ajratiladi. Aksariyat zamonaviy lug'atlarda bosh so'zning qora rang bilan birga to'liq bosh harflar bilan ajratilishi ham odatga aylangan:

ANIQ OT. Sezgi a'zolarimiz orqali bilishimiz mumkin bo'lgan narsalarni bildirgan otlar. Mas., mashina, kitob, uy, eshik, dutor[1].

PARKINSONIZM –

markaziy nerv sistemasining surunkali avj oluvchi kasalligi. Harakatlaguvchi funksiyalar buzilishi bilan o'tadi. Gipokineziya, ayrim mushaklar qotib qolishi, titroq [2].

Bosh so'z muayyan bir leksema emas, balki paradigma, uyaga teng kelganda ham barchasining bosh harflar bilan matndan ajratib ko'rsatilishi kuzatiladi:

BEZOVTI, BETOQAT, BETINCH, NOTINCH, HALAK, BESARANJOM. Tinch buzilgan, toqatsiz holatda [3].

Ikkinchi holatda bosh so'zning matn ichida kichik harflar bilan berilishi. Masalan, yuqorida keltirilgan "O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati"da sinonimik qator tarzida keltirilgan sinonimlar ham qora harflar bilan yozilgani kuzatiladi:

Betinch, betoqat so'zlarining ma'no xususiyati ularning o'ziga teng anglashilib turadi. Betoqat ruhiy yoki jismoniy azob (qiynoq) ta'siridagi betinch holatni bildiradi. Betinch, notinch keng tushunchaga ega. U shaxs, jonli narsa, shuningdek, jonsiz predmetlarning holatiga nisbatan qo'llaniladi. Halak, asosan, odamning holatiga nisbatan, lekin shunda ham nisbatan kam qo'llaniladi. Besaranjom, asosan, odamning, kam darajada narsa-predmetlarning holatiga nisbatan qo'llaniladi [3].

2. Yotiq harflar (kursiv). Aksariyat izoh tipidagi lug'atlarda bosh so'zga keltirilgan etimologik, uslubiy, grammatik pometalalar, shuningdek, illyustratsiya lug'at maqola matnida yotiq harflar – kursiv bilan ajratiladi. Bosh so'zning barcha ma'nolari izohi alohida matn tarzida bo'lib, xuddi asosiy bosh ma'no izohida bo'lgani kabi bevosita bosh so'zdan keyin ko'chma, shv., rvsh., fiz., huq., so'z., kit. kabi semantik, grammatik va uslubiy pometalalar zaruratga ko'ra qo'llaniladi va tegishli arab raqamlaridan keyin qo'yiladi.

Illyustrativ havola, ko'chirma va frazeologik birliklar bosh so'zning qaysi ma'nosiga tegishli bo'lsa, shu ma'no talqini berilgan o'rinda keltiriladi. Masalan:

I(Y)MON [a. ايمان - Allohga ishonch; diniy e'tiqod] 1 din. Xudoga bo'lgan ishonch, e'tiqod; ko'ngilda ishonish va tilda iqrar qilish. Imoniga, diniga mustahkam pokiza odam bor joydan ajina yuz chaqirim nariga qo'chirmish. S.Ahmad, Hukm.

Imon keltirmoq Kalimayi shahodatni aytib, Allohga ishonch-e'tiqod bildirmoq. Eshon... bo'g'ilibroq davom etdi: – Yo'q, bandaning ishi haq taolaga imon keltirmoq! P.Tursun, O'qituvchi.

Imoni komil Shak-shubhasi yo'q, butunlay ishonadi. Biroq Elchiyevning imoni komilki, shu asnoda hech kim qizichalik qattiq kuymasdi unga. E.A'zamov, Javob.

Imonini yutmoq (yoki yo'qotmoq, sotmoq) 1) xudoga ishonchni yo'qotmoq, dindan qaytmoq; 2) ko'chma vijdonini sotmoq, vijdonsizlik qilmoq. (O'TIL, 2; 505-506)

3. Oraliq bilan ajratilgan (разреженный) so'zlar. An'anaviy klassik leksikografiyada, aniqrog'i, kompyuter texnologiyalari rivojlanmagan davrga xos bo'lgan bosma lug'atlarda illyustratsiya tarkibida uchragan bosh so'zning oraliq – intervallar tashlab yozilishi kuzatiladi. Masalan:

IXTIYOR, IZM, MAYL. Xohish-istak, erk. Izm kam qo'llaniladi.

Endigi i x t i y o r manda, u kelguncha bir yaxshi joyga unashayin-da, kelgandan so'ng to'yni ham jo'natib yuboraylik! (A.Qodiriy.) Qiyiq ko'zlar sinovchan nazar bilan Boboqulga tikildi. Boboqul esa boshini ekkancha qimirlamay o'tirardi. Maxsum uning qiyofasidan "i z m i m sizda, pirim" degan ma'noni uqdi (S.Anorboyev). "Bitta kishi aytdi. Nega qasam

ichasiz, har kimning ma'yli o'zida", – dedi Sharofat va labini burib chetga saradi (A.Qahhor). (Y'CIJL, 110)

4. Bosh so'zning qisqartirilishi. Leksikografik amaliyotda, asosan, ensiklopedik xarakterdagi lug'atlarda ixchamlikka amal qilish, takrorga yo'l qo'ymaslik maqsadida izoh tarkibida kelgan bosh so'z qisqartirib, bosh harfi berilishi kuzatiladi. Ammo bosh so'z illyustratsiya, ko'chirma va frazeologik birliklar tarkibiga kelganda qisqartirilmaydi, to'liq beriladi:

MAXDUM (arab. – xizmat qiluvchi odam) – pir va ustozlarga beriladigan laqab. Odatda pir va ustozlarga o'z muridlari va shogirdlari xizmat qilishgan. M.ni ba'zi joylarda pir, ustoz va ulamolarning o'g'illariga nisbatan ham ishlatadilar. Ba'zan M. so'zi "maxsim" deb noto'g'ri ishlatiladi. Naqshbandiylik tariqati shayxlaridan Sayyid Ahmad Xojagi ibn Sayyid Jaloliddin Kosoniy Dahbediy "Maxdumi A'zam", ya'ni "Ulug' Maxdum" deb e'zozlangan. (O'ME, M; 309)

Tadqiqot metodologiyasi va materiallari. Sinonim yoki dubletlar lug'at so'zligida alifbo tartibida berilib, o'z o'rnida bosh so'z sifatida izohlanadi va zarur holda q. (qarang), ayn. (aynan) pometalari bilan sinonimi ko'rsatiladi:

Lug'at maqoladagi izoh qismga asos sifatida keltirilgan illyustrativ havola, misol va turli erkin, turg'un birliklar, maqol, matallar bosh harf bilan yoziladi. Birdan ortiq tasdiqlovchi havola keltirilganda bir-biridan nuqta bilan ajraladi:

QADR [a. قدر – miqdor, o'lchov; daraja, martaba; taqdir, qismat] 1 Jamiyatda, kishilar o'rtasida tutgan o'rin, o'zga(lar) tomonidan bo'lgan hurmat, e'tibor. O'z qadrini bilmagan birovning qadrini bilmaydi. Maqol. Oftob oyim... qizining qadrini bunchalik arshlargacha ko'tarmoqda bo'lgan yigitga o'zida yo'q cheksiz muhabbat, poyonsiz ehtirom sezmoqda. A.Qodiriy, O'tgan kunlar. (O'TIL, 5; 454)

Bosh so'zning umumiy izohi yoki uning ayrim hosila ma'nolari izohiga keltirilgan yaqin sinonimlar qatori orasida vergul, ma'nolari u qadar yaqin bo'lmagan, shartli sinonimlar bir-biridan nuqtali vergul bilan ajratiladi: "QADR – miqdor, o'lchov; daraja, martaba; taqdir, qismat; hayotda tutgan o'rin; ahamiyat, muhimlik holati" kabi.

Amaliy tahlil va tadqiqot natijalari. Lug'at maqolada yozuv formatlari bilan bog'liq yuqorida ko'rib o'tilgan belgilar bilan birga, lug'at maqola komponentlarini tizimlashtirish, berilgan izohni to'ldirish, aniqlashtirish maqsadida leksikografik markerlardan ham foydalaniladi. Leksikografik manbalarda mazkur belgilarning o'ndan ortiq turi uchraydi, yo'naltiruvchi belgilar, paleografik, tipografik belgilar kabi har xil terminlar bilan yuritiladi. So'nggi yillarda nashr etilgan jahon leksikografiyasining zamonaviy namunalarida lug'at maqola tarkibida izohni takomillashtirish maqsadida qo'llangan leksikografik markerlarning quyidagi turlarini uchratish mumkin:

1. ~ tilda belgisi. Tarjima yoki tarixiy lug'atlarida izoh tarkibidan kelgan bosh so'z o'rnida foydalanilishi kuzatiladi. Ixchamlikka erishish maqsadida hatto bosh so'z illyustratsiya tarkibiga kelganda ham tilda bilan beriladi:

jump [dʒʌmp] 1. n 1) sakrash, irg'ish; high ~ tepaga sakrash; 2) to'satdan suvning ko'tarilishi; from the (very) first ~ bosnidan boshlab; on (upon) the ~ juda band; 2. v 1) sakramoq, hakkalamoq; to ~ high well tepaga yaxshi sakramoq; to ~ for joy xursandchilikdan sakramoq; 2) ko'tarilmoq, sakramoq (narx to'g'risida); 3) urishmoq, koyimoq, ayblamoq (kimdir); to ~ about (sevinchi ichiga sig'may, xursandchilikdan; og'riqdan) sakramoq (irg'ishlamoq); to ~ at nimanidir jon deb qabul qilmoq; to ~ at an offer taklifni jon deb qabul qilmoq; to ~ down sakrab tushmoq; to ~ in (into) sakrab chiqib (minib) olmoq; to ~ on (upon) kimgadir kutilmaganda tashlanmoq (hamla qilmoq); to ~ out sakrab (irg'ib) chiqib ketmoq; to ~ over ustidan sakrab (hatlab, irg'ib) o'tmoq; hatlamoq [5].

2. □ kvadrat yoki to'g'ri to'rtburchak. Ayrim tillar leksikografiyasida izoh va illyustratsiya kvadrat bilan chegaralanadi:

НЕУЧЁНЫЙ – разг. Недостаточно или вовсе не учившийся; неграмотный, малограмотный, необразованный. □ Неучёный подмастерье. | Мальчику поспешилось поступить в гимназию, а Нина так и осталась неучёной, всю жизнь писала каракулями. А.Чехов; – Я неучёный. Вот учиться бы пойти... – жадно добавил он. Б.Горбатов [6].

3. | vertikal parallel chiziqlar. Lug'at maqolada bosh so'zning sintagmatik munosabati, semantik valentligiga keltirilgan misol va illyustrativ havolani ajratish uchun ishlatiladi:

ДРЕМУЧИЙ – то же, что тёмный. □ Дремухая провинциалка. Дремучий невежда. | [Ходунов] А вы вообще... читали что-нибудь, кроме наших афиш? Вы же дремухая личность! О.Угрюмов [7].

4. Δ uchburchak belgisi. Ayrim tillar leksikografiyasida lug'at maqola qismlarini strukturaviy jihatdan tizimlashtirish, tarkibida bosh so'z ishtirok etgan frazeologik birliklarni ajratish uchun qo'llanadi:

Shuningdek, lug'at maqola tarkibida turli funksiyalarni o'z zimmasiga olgan ≈, ≠, ↓, →, /, ∅, ◆ va boshqa markerlarni ham uchratish mumkin.

5. Arab va rim raqamlari. Bosh so'z ko'p ma'noli bo'lganda dastlab uning atash ma'nosi, keyin kontekstual ma'nolar keltiriladi. Har bir ma'no qalin qora rangdagi arab raqamlari bilan satr boshidan beriladi. Masalan:

ILG'OR 1 tar. Qo'shinning oldingi qismi, avangardi. Yarim kechada Boburning ilg'orlari darvozaga sekin yaqinlashganlarida, Abu Yusuf va Muhammad Sultonning navkarlari darvozaxona ustidan ularga kamon o'q otib, bir qancha kishini yarador qildi. P.Qodirov, Yulduzli tunlar.

2 ko'chma Ishda, taraqqiyotda oldinda boruvchi, peshqadam. Paxtachilik ilg'orlari. Trestdagi ilg'or binokorlar qatori Yodgorni ham tantanali kechaga taklif qilishdi. O'.Hoshimov, Qalbingga quloq sol. (O'TIL, 2; 501)

Umuman, leksikografiyada har bir so'z turkumining an'anaga aylangan lug'at shakli ham mavjud. Shuni ham aytib o'tish lozimki, ensiklopedik lug'atlarda so'zlik, asosan, otlar, terminologik lug'atlarda ko'pincha ot, qisman, fe'l (harakat nomi), sifatlardan tashkil topadi. O'quv izohli, umuman, izohli lug'atlarning deyarli barcha ko'rinishlarida so'z turkumlari chegaralanmaydi. Har bir so'z turkumi lug'at uchun tanlangan qat'iy bir shaklda beriladi. Masalan, otlar – birlik son, bosh kelishikda; sonlar – sanoq yoki tartib son shaklida; sifatlari – aniq nisbat, oddiy darajada; olmoshlar – ot-olmoshlar bosh kelishik, birlikda va hk.; fe'llar – aniq nisbat, bo'lishli harakat nomining –moq shaklida.

Izohli lug'atlarda bosh so'z leksema maqomida bo'lib, nutqda voqelanmagan bo'ladi. Uning nutqiy voqelanishiga izoh matn tarkibida tasdiqlash uchun illyustrativ misol, frazeologik birliklar keltiriladi va bunda bosh so'z nutq talabiga ko'ra turli grammatik shakllarda bo'lishi mumkin. Yuqorida keltirilgan lug'at maqolada QADR leksemasi qadrini, qadring, qadri, qadr qilmoq, qadriga yetmoq, qadrini bilmoq, qadri o'tmoq kabi shakllar orqali nutqqa voqelangani misollarda aks etgan.

Xulosa. Leksikografiya sohasida lug'at maqolasi shunchaki so'z izohi emas, balki aniq tizimga solingan lisoniy axborotlar majmuidir. Tadqiqot davomida lug'at maqolasining mikrostrukturaviy yaxlitligini ta'minlashda yozuv formati, punktuatsion belgilar va leksikografik markerlarning o'rni tahlil qilinib, ularning har biri o'ziga xos semantik va funksional yukka ega ekanligi aniqlandi. Lug'at matnining tashqi ko'rinishi va grafik belgilari foydalanuvchi uchun axborotni qidirish jarayonini optimallashtiruvchi muhim omillar hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Эрматов И. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. –T: "Fan", 2013. –B.15.
2. Tibbiy terminlari lug'ati. Toshkent, 2013. –B. 242.
3. Хожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. –Т., 1974.– Б. 68.
4. Fozilov E.I. Alisher Navoiy asarlari lug'ati. K 1. – Toshkent: NISO POLIGRAF, 2013. – 1008 b. – Б. 831
5. Семенов А.А., Семенов И.А. Школьный словарь синонимов русского языка. – Москва: Русское слово, 2013 г. – С.302-303 <https://www.labirint.ru/books/355413/>
6. Семенов А.А., Семенов И.А. Школьный словарь синонимов русского языка. – Москва: Русское слово, 2013 г. – С.302-303 <https://www.labirint.ru/books/355413/>